XALQ DEPUTATLARI BULOQBOSHI TUMAN KENGASHI
QARORI

170500, Buloqboshi t., M.Ismoiliy ko'chasi 6-uy, Telefon: (74) 7732560 e-mail: buloqboshi@exat.uz

2024 - yil 15 - yanvar VI-79-7-1-20-K/24 Buloqboshi tumani hokimligi

Buloqboshi tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-farmonining 1-bandiga muvofiq Buloqboshi tuman moliya bo‘limi va davlat soliq inspeksiyasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflari muhokama etilib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hamda Davlat soliq qo‘mitasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llash to‘g‘risida”gi xatida quyidagilar;

Yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2024 yilda 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

Buloqboshi tuman uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 39 mln so‘m va jismoniy shaxslarga 1 m^2 uchun 352 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

Kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha Moliya bo‘limining hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasining qo‘shma taklifi maqullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

Buloqboshi tuman hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq,

Buloqboshi tuman hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2023 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

Xalq deputatlari tuman Kengashlariga Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashlari bir hafta muddatda ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, joriy yil oxiriga qadar muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni joylardagi soliq organlariga taqdim etish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi ushbu qarorning ilovasiga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqiqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

6. Buloqboshi tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Oshiqov) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini joriy yil oxiriga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

Tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

Yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Sotvoldiyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Bo‘taxonov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **O'.Mamurov**

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-79-7-1-20-K/24-son qaroriga
1-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalari

mln,so‘mda

T/R	Viloyat xududlari	1gektar uchun bazaviy soliq stavkasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qori Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,5-2,0)	Tuman (shaxarlar) kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i	*Tuman (shaxar) xududlari (MFY)*	1gektar uchun bazaviy soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman (shaxar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsien (0,7-3,0)	Daxa,massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*
10	**Buloqboshi tuman**	**44,0**	**0,68**	**29,9**	Xontepa MFY	30,9	1,10	34,0
					M.Ismoiliy MFY	30,9	1,10	34,0
					Qumguzar MFY	28,1	1,00	28,1
					Chaqar MFY	28,1	1,00	28,1
					Barlos MFY	25,3	0,90	22,7
					Toshkechik MFY	28,1	1,00	28,1
					Guliston MFY	28,1	1,00	28,1
					Farovon MFY	28,1	1,00	28,1
					Buyuk Turon MFY	28,1	1,00	28,1
					Boymahalla MFY	28,1	1,00	28,1
					Uch ko‘cha MFY	28,1	1,00	28,1
					Shoxguzar MFY	25,3	0,90	22,7
					Yuksalish MFY	22,5	0,80	18,0
					Do‘lana MFY	25,3	0,90	22,7
					Qumariq MFY	22,5	0,80	18,0
					Qashqar MFY	25,3	0,90	22,7
					Nurzamin MFY	25,3	0,90	22,7
					Sohibkor MFY	25,3	0,90	22,7

					Sarbontepa MFY	25,3	0,90	22,7
					Sharq yulduzi MFY	25,3	0,90	22,7
					Baynalminal MFY	25,3	0,90	22,7
					Qaqir MFY	22,5	0,80	18,0
					Shirmonbuloq MFY	25,3	0,90	22,7
					Navoiy MFY	25,3	0,90	22,7
					Uchtepa MFY	25,3	0,90	22,7
					Zarg‘aldoq MFY	25,3	0,90	22,7
					Tinchlik MFY	25,3	0,90	22,7
					Ko‘prikboshi MFY	25,3	0,90	22,7
					Bozorboshi MFY	28,1	1,00	28,1
					Raish MFY	22,5	0,80	18,0
					Yorboshi MFY	25,3	0,90	22,7
					Rivoj MFY	28,1	1,00	28,1
					Soybo‘yi MFY	25,3	0,90	22,7
					Neftchilar MFY	25,3	0,90	22,7
					Sanoat MFY	22,5	0,80	18,0
					Balandchek MFY	25,3	0,90	22,7
					Istiqlol MFY	25,3	0,90	22,7

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-79-7-1-20-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalari

so‘mda

T/R	Viloyat xududlari	1gektar uchun bazaviy soliq stavkasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qori Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,5-2,0)	Tuman (shaxarlar) kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i	*Tuman (shaxar) hududlari (MFY)*	1gektar uchun bazaviy soliq stavkasi	Xalq deputatlari tuman (shaxar) Kengashlari tomonidan qo‘llanilgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsien (0,7-3,0)	Daxa, massiv, maxalla, ko‘cha kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*
10	**Buloqboshi tumani**	**394,0**	**0,68**	**267,9**	Xontepa MFY	278,8	1,1	306,7
					M.Ismoiliy MFY	278,8	1,1	306,7
					Qumguzar MFY	253,4	1,0	253,4
					Chaqar MFY	253,4	1,0	253,4
					Barlos MFY	228,1	0,9	205,3
					Toshkechik MFY	253,4	1,0	253,4
					Guliston MFY	253,4	1,0	253,4
					Farovon MFY	253,4	1,0	253,4
					Buyuk Turon MFY	253,4	1,0	253,4
					Boymahalla MFY	253,4	1,0	253,4
					Uchko‘cha MFY	253,4	1,0	253,4
					Shoxguzar MFY	228,1	0,9	205,3
					Yuksalish MFY	228,1	0,9	205,3
					Do‘lana MFY	228,1	0,9	205,3
					Qumariq MFY	177,4	0,7	124,2
					Qashqar MFY	228,1	0,9	205,3

					Nurzamin MFY	228,1	0,9	205,3
					Sohibkor MFY	228,1	0,9	205,3
					Sarbontepa MFY	228,1	0,9	205,3
					Sharq yulduz MFY	228,1	0,9	205,3
					Baynalminal MFY	228,1	0,9	205,3
					Qaqir MFY	202,8	0,8	162,2
					Shirmonbuloq MFY	228,1	0,9	205,3
					Navoiy MFY	228,1	0,9	205,3
					Uchtepa MFY	228,1	0,9	205,3
					Zarg‘aldoq MFY	228,1	0,9	205,3
					Tinchlik MFY	228,1	0,9	205,3
					Ko‘prikboshi MFY	253,4	1,0	253,4
					Bozorboshi MFY	253,4	1,0	253,4
					Raish MFY	228,1	0,9	205,3
					Yorboshi MFY	228,1	0,9	205,3
					Rivoj MFY	253,4	1,0	253,4
					Soybo'yi MFY	253,4	1,0	253,4
					Neftchilar MFY	228,1	0,9	205,3
					Sanoat MFY	177,4	0,7	124,2
					Balandchek MFY	228,1	0,9	205,3
					Istiqlol MFY	228,1	0,9	205,3